



## SHARQ UYG'ONISH DAVRI VA UNDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

*Tugizboyeva Sevinch Abdunabi qizi*

*Guliston Davlat Pedagogika Insituti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi*

*sevinchabdunabiyeva@gmail.com*

*+998915993107*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Sharq uyg'onish davrining mazmun-mohiyati, uning ilm-fan va ma'naviy hayot taraqqiyotidagi o'rni hamda bu davrda ta'lim-tarbiya masalalarining tutgan o'rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnaki, Burhoniddin Marg'inoniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ta'limiy-axloqiy qarashlari yoritiladi. Maqolada Sharq uyg'onish davrining bugungi O'zbekiston ta'lim siyosati bilan uzviy bog'liqligi ochib berilib, zamonaviy islohotlar, statistik ko'rsatkichlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'lim, ma'naviyat va ilm-fanga oid fikrlari asosida xulosalar chiqariladi. Tadqiqot natijasida Sharq uyg'onish davri merosi nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi ta'lim tizimini takomillashtirish uchun muhim nazariy-metodologik asos ekanligi isbotlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Sharq uyg'onish davri, ta'lim, tarbiya, ilm-fan, ma'naviyat, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, pedagogik meros.*

Sharq uyg'onish davri jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o'rin tutadigan ulkan madaniy-ma'rifiy hodisadir. Mazkur davrda Markaziy Osiyo, Xuroson, Movarounnahr, Bag'dod, Buxoro, Samarqand, Xorazm kabi ilmiy-madaniy markazlarda fan, falsafa, tibbiyot, astronomiya, matematika, tilshunoslik, adabiyot va axloqiy tafakkur mislsiz darajada rivojlandi. Tadqiqotchilar odatda Sharq uyg'onishining birinchi bosqichini IX-XII asrlar, ikkinchi bosqichini esa XIV-XV



asrlar bilan bog'laydilar. Sharq uyg'onish davrining eng muhim jihatlaridan biri shundaki, unda ilm bilan tarbiya, aql bilan axloq, shaxs kamoloti bilan jamiyat taraqqiyoti bir-biridan ajralmagan holda talqin etilgan. Mutafakkirlar bilim olishni insonning oliy burchi, ustozni jamiyatning ma'naviy tayanchi, tarbiyani esa komil insonni shakllantiruvchi bosh omil sifatida baholaganlar.

Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan bir sharoitda Sharq uyg'onish davri merosini qayta o'rganish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur meros yosh avlodni ilmiy, vatanparvar, axloqan yetuk va tafakkurli etib tarbiyalashning chuqur ilmiy asoslarini o'zida mujassam etgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida biz buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma'naviy merosiga tayanamiz". Shu ma'noda, Sharq uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya masalalarini ilmiy tahlil qilish nafaqat tarixiy-pedagogik ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish uchun ham muhimdir.

Sharq uyg'onish davri deganda, avvalo, musulmon Sharqida, xususan, Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda ilm-fan, falsafa, san'at va ta'limning yuksalish davri tushuniladi. Bu yuksalish tasodifiy emas edi. Uning shakllanishiga bir qator omillar sabab bo'ldi: siyosiy barqarorlikning nisbatan kuchayishi, savdo yo'llarining kengayishi, shahar madaniyatining yuksalishi, kutubxonalar va madrasalarning ko'payishi, arab tilining ilm tili sifatida qaror topishi hamda qadimgi yunon, hind va eron ilmiy merosining o'zlashtirilishi. IX-X asrlarda Bag'doddagi "Bayt ul-hikma" ilmiy markazi, keyinchalik Buxoro, Samarqand, Xorazm, Marv, Hirot kabi markazlar Sharq uyg'onishining tayanch nuqtalariga aylandi. Aynan shu muhitda nafaqat tabiiy va aniq fanlar, balki pedagogik va axloqiy fikr ham yuksak darajada rivojlandi. Ilmning ijtimoiy qadri oshdi, ustoz-shogird an'anasi mustahkamlandi, ilm olish va komillikka intilish jamiyatning ma'naviy mezoniga aylandi.

Sharq uyg'onish davrining o'ziga xosligi shundaki, unda bilim amaliyotdan, axloq ijtimoiy mas'uliyatdan, tarbiya esa shaxs kamolotidan ajratilmagan. Ya'ni,



o'sha davr mutafakkirlari ilmni "ma'lumotlar yig'indisi" emas, balki insonni kamolga yetkazuvchi vosita deb tushunganlar. Shu bois ta'lim masalalari ularning asarlarida doimo axloqiy, ijtimoiy va falsafiy g'oyalar bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Abu Nasr Forobiy – Sharq uyg'onish davrining eng yirik qomusiy allomalaridan biri bo'lib, pedagogik tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Uning "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Ilmlarning kelib chiqishi" kabi asarlarida ta'lim, tarbiya, axloq va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar chuqur yoritilgan. Forobiy nazarida inson tabiatan kamolotga intiluvchi mavjudotdir, biroq bu kamolotga faqat tarbiya va ta'lim orqali erishiladi. U shaxsning aqliy va axloqiy tarbiyasini jamiyat farovonligining asosiy sharti deb hisoblagan. Ayniqsa, Forobiy ustoz shaxsiga yuksak baho beradi: ustoz nafaqat bilim beruvchi, balki fazilatli hayotga yo'naltiruvchi murabbiydir. Mutafakkirning fikricha, haqiqiy ta'lim insonda tafakkur, kuzatuvchanlik, mantiqiy mushohada va axloqiy mas'uliyatni shakllantirishi zarur. Forobiy ilmni tasniflar ekan, har bir fan insonni kamolga olib boruvchi vosita ekanini ko'rsatadi. Bu yondashuv hozirgi kompetensiyaviy ta'lim tamoyillari bilan hamohangdir. Chunki bugungi ta'limda ham bilimni hayotiy ko'nikma va shaxsiy fazilatlar bilan uyg'un holda rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ilmiy kuzatish, tajriba va xolislikni ilmning bosh mezoni deb bilgan ulug' allomadir. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Geodeziya", "Mineralogiya" kabi asarlarida nafaqat tabiiy-ilmiy tafakkur, balki ta'limning metodologik asoslari ham ko'zga tashlanadi. Beruniy o'quvchini borliqni kuzatishga, hodisalarning sababini izlashga, bilishda shoshqaloqlikdan qochishga o'rgatadi. Uning ilmiy uslubi bugungi tadqiqot metodologiyasiga juda yaqin: faktga tayanish, qiyoslash, tajriba, xolis tahlil. Bu esa ta'lim jarayonida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Beruniy ta'limda milliy va madaniy bag'rikenglik g'oyasini ham ilgari surgan. U turli xalqlar madaniyatini o'rganish orqali insonning dunyoqarashi kengayishini



ta'kidlaydi. Bu yondashuv hozirgi globallashuv davrida intermadaniy kompetensiyalarni shakllantirish uchun nihoyatda dolzarbdir.

Abu Ali ibn Sino – ta'lim-tarbiya masalasini eng mukammal bayon qilgan mutafakkirlardan biridir. Uning “Donishnoma”, “Tadbiri manzil”, “Axloq haqida risola”, “Qonun” va boshqa asarlarida bola tarbiyasi, jismoniy rivojlanish, axloqiy kamolot, o'qitish bosqichlari haqida qimmatli fikrlar mavjud. Ibn Sino bolani yoshligidan boshlab mehnatsevarlik, halollik, odob, ilmga muhabbat ruhida tarbiyalash lozimligini uqtiradi. U ta'limni yosh xususiyatlariga mos tashkil etish tarafdori bo'lgan. Ayniqsa, bolalarni jamoada o'qitish g'oyasi uning ilg'or qarashlaridan biri hisoblanadi. Uning fikricha, jamoada tahsil olish bolada raqobat, ijtimoiy faollik, muloqot va o'zaro hurmatni rivojlantiradi. Ibn Sino ustozning shaxsiy namunasiga alohida e'tibor beradi. Tarbiyachi muloyim, bilimdon, pokiza xulqli va kuzatuvchan bo'lishi kerak. Bu fikrlar bugungi pedagogik etikaga ham to'la mos keladi. Shuningdek, Ibn Sino jismoniy sog'liq va ruhiy kamolotni bir-biri bilan uzviy bog'liq deb biladi. Hozirgi inklyuziv va sog'lomlashtiruvchi ta'lim konsepsiyalarida ham ayni shu yondashuv muhim o'rin tutadi.

XI asr mutafakkiri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari Sharq uyg'onish davrining ta'limiy-axloqiy tafakkurida alohida ahamiyatga ega. Asarda adolat, aql, qanoat, davlat boshqaruvi, odob va komillik masalalari badiiy-falsafiy usulda yoritiladi. “Qutadg'u bilig”da bilim insonni ulug'lovchi, jaholat esa uni tubanlashtiruvchi omil sifatida talqin etiladi. Asarda yoshlarni odobli, so'zida sobit, mas'uliyatli, kattaga hurmat, kichikka izzat ruhida tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi. Demak, bu asar nafaqat siyosiy-didaktik yodgorlik, balki muhim pedagogik manba hamdir. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk” asari tilshunoslik yodgorligi bo'lish bilan birga, unda xalq pedagogikasi, odob-axloq va tarbiyaga oid qarashlar ham mujassamdir. Maqollar, hikmatli so'zlar, xalqona iboralar orqali yosh avlodga mehnatsevarlik, botirlik, vafodorlik, ilmga intilish kabi sifatlar singdirilgan. Til tarbiyasi, nutq odobi va milliy o'zlikni anglash masalalari Qoshg'ariy merosida markaziy o'rin egallaydi. Hozirgi ona tili ta'limi, milliy o'zlik va ma'naviy tarbiya masalalarida bu merosning ahamiyati nihoyatda kattadir.



Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida ilm, odob, tavoze’, saxovat, halollik, til odobi va jaholatning zararli oqibatlari haqida teran fikrlar bayon qilingan. Asar bevosita tarbiyaviy ruhga ega bo‘lib, unda ilmli insonning jamiyatdagi mavqei ulug‘lanadi. Mutafakkirning fikricha, insonning ziynati boylik emas, balki odob va bilimdir. Bu qarash bugungi ta’limda “qadriyatlar ta’limi”ni rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhimdir.

Sharq uyg‘onishining ikkinchi bosqichida Mirzo Ulug‘bek asos solgan ilmiy maktab alohida ahamiyatga ega. Samarqand rasadxonasi, madrasalar va ilmiy muhit o‘sha davrda aniq fanlar, ayniqsa astronomiya va matematika taraqqiyotiga kuchli turtki berdi. Ulug‘bek faoliyatining pedagogik ahamiyati shundaki, u ilmni davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘rdi. Uning madrasalarida faqat diniy emas, balki dunyoviy fanlar ham chuqur o‘qitilgan. Bu esa ta’limning integrativ xarakterini ko‘rsatadi. Ilmiy maktab, ustoz-shogirdlik an‘analari, izlanishga rag‘batlantirish — bularning barchasi zamonaviy universitet modeli uchun ham muhim tamoyillardir.

Alisher Navoiy ijodida komil inson, ma’naviy poklik, ilm, odob va muruvvat g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa”, “Nazm ul-javohir”, “Lison ut-tayr” kabi asarlarda ta’lim va tarbiyaning ma’naviy asoslari yuksak badiiy-falsafiy darajada ifoda etilgan. Navoiy ilmni insonni ulug‘lovchi nur, jaholatni esa jamiyat tanazzuliga olib boruvchi illat sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, yosh avlodni tarbiyalashda adab, hayo, saxovat, mehnat, vatanparvarlik va xalqparvarlik ustuvor bo‘lishi kerak. Navoiy talqinidagi komil inson g‘oyasi bugungi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq uyg‘onish davridagi pedagogik qarashlarni umumlashtirganda, bir qator asosiy tamoyillar ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, ilm va axloq birligi tamoyili. Mutafakkirlar nazarida bilim axloqdan uzilsa, u komillikka emas, zararli oqibatlarga olib borishi mumkin. Shuning uchun ular ta’limni tarbiya bilan uzviy holda olib borishni talab qilganlar. Ikkinchidan, ustoz maqomining yuksakligi. Sharq pedagogik tafakkurida ustoz oddiy bilim beruvchi emas, balki ma’naviy yo‘lboshchi, namunali inson sifatida talqin etiladi. Bu g‘oya bugungi pedagog kadrlar tayyorlash



masalasida nihoyatda dolzarbdir. Uchinchidan, komil inson g'oyasi. Ta'limning pirovard maqsadi shunchaki savodli shaxs emas, balki aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan sog'lom, ijtimoiy mas'uliyatli insonni tarbiyalashdan iborat bo'lgan. To'rtinchidan, hayotiylik va amaliylik. Sharq mutafakkirlari ilmni hayot bilan bog'lashga intilganlar. Beruniyning tajribaga tayanishi, Ulug'bekning ilmiy maktabi, Qoshg'ariyning xalq donishmandligiga murojaati bunga dalildir. Beshinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi. Sharq uyg'onish davri allomalari o'z xalqining madaniy ildizlariga tayangan holda, butun insoniyat uchun ahamiyatli g'oyalarni ilgari surganlar. Bu esa bugungi ta'limning milliylik va ochiqlik tamoyillariga hamohangdir.

Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar mazmunida buyuk ajdodlar merosiga murojaat qilish muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ko'plab nutqlarida uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun ta'lim, ilm-fan va ma'naviyatga tayanish zarurligini ta'kidlab kelmoqda. Xususan, u shunday degan edi: "Agar biz O'zbekistonni rivojlangan davlatga aylantirmoqchi bo'lsak, buning uchun ilm-fan, innovatsiya, zamonaviy kadrlar tayyorlashga tayanamiz". Yana bir nutqida Prezident: "Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda ikkita mustahkam ustunga tayanamiz: birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" deya ta'kidlagan. Ushbu fikr Sharq uyg'onish davri merosining bugungi taraqqiyot strategiyasidagi o'rnini yaqqol ko'rsatadi.

Bugungi O'zbekistonda maktabgacha ta'lim qamrovi sezilarli darajada oshgani, yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etilgani, nodavlat ta'lim sektori rivojlanayotgani, ilmiy-tadqiqotga e'tibor ortgani ta'limning ustuvor yo'nalishga aylanganidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va rasmiy ochiq ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim qamrovi bir necha barobar o'sdi, oliy ta'lim bilan qamrov ham keskin oshdi. Shuningdek, UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim sifati va inson kapitali masalalari XXI asr taraqqiyotining hal qiluvchi omillaridan biri sifatida baholanmoqda. Bu esa Sharq



uygʻonish davridagi “ilm orqali kamolot” gʻoyasining bugun ham dolzarbligini tasdiqlaydi.

Taʼlim sohasidagi islohotlarning miqyosi Sharq uygʻonish merosiga qayta murojaat qilishning amaliy natijalarini ham koʻrsatadi. Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda taʼlim bilan qamrov koʻrsatkichlari sezilarli darajada oʻzgardi. Rasmiy maʼlumotlarda maktabgacha taʼlimga qamrovning oldingi davrlarga nisbatan bir necha barobar oshgani, oliy taʼlimga qamrov darajasining ham ancha yuqorilangani qayd etilgan. Aholining yosh tarkibi boʻyicha Oʻzbekiston “yoshlar mamlakati” hisoblanadi. Shu sababli taʼlim-tarbiya masalalari faqat pedagogik muammo emas, balki strategik rivojlanish omilidir. Yosh avlodga sifatli taʼlim berish, ularda ilmiy tafakkur, milliy gʻurur, axloqiy barqarorlik va fuqarolik masʼuliyatini shakllantirish Sharq uygʻonish davri merosini zamonaviy talqinda davom ettirish demakdir.

Sharq uygʻonish davri allomalari merosi bugungi pedagogika uchun kamida besh yoʻnalishda muhim ahamiyatga ega. Avvalo, u taʼlimning maqsadini qayta anglashga yordam beradi. Yaʼni taʼlim faqat kasbga tayyorlash emas, balki shaxs kamoloti, maʼnaviy immunitet va ijtimoiy masʼuliyatni shakllantirish vositasidir. Ikkinchidan, bu meros qadriyatlar asosidagi taʼlimni kuchaytiradi. Axloq, odob, hurmat, halollik, mehnatsevarlik, adolat, bagʻrikenglik kabi fazilatlar Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida markaziy oʻrinda turadi. Uchinchidan, u integrativ yondashuvni taqozo etadi. Yaʼni tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar, adabiyot, sanʼat va axloqiy tarbiya bir-biridan ajratilmasligi kerak. Bu bugungi fanlararo integratsiya konsepsiyasiga juda mos tushadi. Toʻrtinchidan, Sharq uygʻonish merosi oʻqituvchi shaxsiga qoʻyiladigan talablarni yuksak darajada belgilaydi. Ustoz bilimdon, adolatli, maʼnaviy pok, kuzatuvchan va masʼuliyatli boʻlishi lozimligi haqidagi qarashlar bugungi pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ham muhimdir. Beshinchidan, mazkur meros uchinchi Renessans gʻoyasini mazmunan boyitadi. Chunki yangi uygʻonish poydevori tarixiy xotira, ilmiy salohiyat va maʼnaviy meros uygʻunligida bunyod etiladi.



Muhtasar qilib aytganda, Sharq uygʻonish davri jahon sivilizatsiyasi tarixida buyuk ilmiy-maʼnaviy yuksalish bosqichi boʻlib, unda taʼlim-tarbiya masalalari markaziy oʻrin tutgan. Bu davr mutafakkirlari ilmni inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va maʼnaviy barkamollikning bosh omili sifatida talqin etganlar. Forobiy taʼlimning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini, Beruniy ilmiy tafakkur va xolislikni, Ibn Sino yosh xususiyatlariga mos tarbiya va ustoz shaxsini, Yusuf Xos Hojib axloqiy-siyosiy tarbiyani, Mahmud Qoshgʻariy til va milliy oʻzlik tarbiyasini, Ahmad Yugnaki maʼrifiy-axloqiy komillikni, Mirzo Ulugʻbek ilmiy maktab anʼanalarini, Alisher Navoiy esa komil inson gʻoyasini yuksak darajada asoslab bergan. Bugungi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan taʼlim islohotlari, uchinchi Renessans gʻoyasi va ilm-fanga berilayotgan eʼtibor Sharq uygʻonish davri merosining zamonaviy davomidir. Demak, ushbu tarixiy-merosiy tajriba zamonaviy pedagogik tafakkur, maʼnaviy-maʼrifiy ishlar va yoshlar tarbiyasini takomillashtirish uchun mustahkam nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Yugnaki. Hibat ul-haqoyiq. Toshkent – 1972.
2. Beruniy, A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent – 1968.
3. Forobiy, A.N. Fozil odamlar shahri. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent – 1993.
4. Konrad, N.I. Zapad i Vostok. Nauka. Moskva – 1973.
5. Mahmud Qoshgʻariy. Devonu lugʻotit-turk. OʻzSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti. Toshkent – 1960.
6. Mirziyoyev, Sh.M. Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini takomillashtirishga oid nutqlar va maʼruzalar. Toshkent – 2021.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Taʼlim sohasiga oid rasmiy statistik koʻrsatkichlar. Toshkent – 2024.